

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

**Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejavochi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizduln</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

**OGAHY TARIXY VA LIRIK ASARLARIDA FALSAFIY-MA'RIFIY ISTILOHLAR  
ISTIFODASIDA MUSHTARAKLIK****COMMONALITY IN THE USE OF PHILOSOPHICAL AND ENLIGHTENMENT TERMS  
IN AGAHY'S HISTORICAL AND LYRICAL WORKS****ОБЩНОСТЬ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ФИЛОСОФСКО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ  
ТЕРМИНОВ В ИСТОРИКО-ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АГАХИ****Xalliyev Jasurbek <sup>1</sup>****<sup>1</sup>Xalliyev Jasurbek**

–mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Maqolada Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy dunyoqarash ifodasidagi mushtarakliklar hamda shunga muvofiq tarzda istilohlar qo'llanishidagi ifoda yakrangligi xususida so'z yuritilgan. Tadqiqotchi Ogahiyning "Ta'vizu-l-oshiqin" devoni va tarixiy asarlari debochalaridagi falsafiy-ma'rifiy dunyoqarash ifodalarida yaqinlik bilan muarrixning tarixiy asarlari muqaddimalaridagi falsafiy-ma'rifiy leksika mutanosibligiga ham e'tibor qaratgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются общие черты в выражении философско-просветительского мировоззрения в историко-лирических произведениях Мухаммеда Ризы Агахи, а также соответственно однообразие выражения в использовании терминов. Исследователь также обратил внимание на соразмерность философско-просветительской лексики в предисловиях к историческим трудам историка с близостью философско-просветительского мировоззрения в предисловиях «Тавизу-л-ошыкин» Агахи и исторических сочинений.*

**Abstract**

*The article discusses the commonalities in the expression of philosophical and enlightenment worldview in the historical and lyrical works of Muhammad Riza Agahi, as well as the monotony of expression in the use of terms accordingly. The researcher also drew attention to the proportionality of the philosophical-enlightenment vocabulary in the prefaces of the historical works of the historian with the closeness of the philosophical-enlightenment worldview in the prefaces of Agahi's "Tawizu-l-oshiqin" and historical works.*

**Kalit so'zlar:** falsafiy-ma'rifiy leksika, tarixiy asar, lirik asar, muqaddima, istiloh, dunyoqarash muvofiqligi.

**Ключевые слова:** философско-просветительская лексика, исторический труд, лирическое произведение, введение, терминология, сочетаемость мировоззрений.

**Keywords:** philosophical-enlightenment vocabulary, historical work, lyrical work, introduction, terminology, compatibility of worldview.

**Kirish.** Aksar hollarda ma'lum bir ijodkor yoki muayyan asar tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar belgilangan "hudud" doirasidan uncha tashqariga chiqmaydi. Ogahiy tarixiy asarlaridagi falsafiy-ma'rifiy leksika qo'llanishini, ularning ma'no qirralari, muarrix uslubini bir qadar to'la anglash uchun bu tip so'zlarni ijodkorning lirik asarlari tili bilan ham solishtirish zarurligini taqazo qiladi.

**Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.** Mavzuga aloqador fikrlar M.Safarboyev, N.Komilov, N.Jabborov, N.Shodmonov, G.Xallieyva, A.O'rozboyev kabi olimlar ishlarida kuzilsa ham, Ogahiy tarixiy asarlarida falsafiy-ma'rifiy leksika mavzusi ostida bevosita tizimga solingan, monografik tadqiqot mavjud emas.

**Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish).** Ogahiy lirikasi lisoniy xususiyatlari doirasida olib boriladigan tadqiqotlarda ham shoir devoni (yoki lirik merosi jamlangan, jumladan, tarixiy asarlari)ning qo'lyozma manbalariga asoslanib, ish ko'rish lozim, degan xulosaga keldik. Chunki asl manbadan foydalanish jarayonida ayrim lisoniy hodisalarga doir munozarali fikrlar yuzasidan ma'lum bir to'xtamga kelish imkoniyati bo'ladi.

**Olingan natijalar tahlili.**

Ogahiy tarixiy asarlaridagi falsafiy-ma'rifiy istilohlar ishlatilishini uning nazmiy asarlarida shu tip tushunchalar ifodasiga qiyoslash maqsadida shoir lirikasi bir g'azalni "Ta'viz ul-oshiqin"ning F.G'anixo'jayev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matnidan tanladik. Bundan tashqari, ushbu g'azal mazmunan shoh madhi bo'lgani bois devonning ilgari (1960, 1972-yillar) nashrlaridan o'rin

## ADABIYOTSHUNOSLIK

olmagan. Mazkur g'azalni shoir devoni qo'lyozmasi bilan solishtirib ko'rib, uncha katta farq ko'zga tashlanmasligiga amin bo'ldik. [7, 20<sup>a</sup>]

Ogahiyning ana shu nashrlardan o'rin olmay olmay kelgan "Yo Rab" radifli g'azalining dastlabki ikki bayti quyidagicha:

Hazin ko'nglum hamisha vosili maqsud qil, yo Rab,  
Ki, ya'ni shohi odil xotirin xushnud qil, yo Rab.  
Humoyun zoti kelmish soyai rahmat jahon ichra,  
Ani el boshi uzra toabad mamdud qil, yo Rab.

Ikkinchi baytning nasriy bayoni quyidagicha ko'rinish oladi: "Yo Rab, saodatmand zoti dunyo ahliga rahmat soyasi bo'ldiki, uni el-u yurt boshiga hamisha keng yoy!" Ogahiy tarixiy asarlarida ham *soya* falsafiy-ma'rifiy istiloh sifatida namoyon bo'lgan va qator birikmalar hosil qilgani kuzatiladi. Masalan, "Riyozu-d-davla" o'qiymiz: "Bu dastur bila sahnoshin va navohiyguzin fuqaro va azjaning tazallum va dodin eshitib, boshlarig'a *adolat chatrining soyasin* solib, ahvolpursishliq bila kom-u murodin berur erdi". (8, 252<sup>a</sup>) Keltirilgan misoldagi "adolat chatrining soyasi" birikmasida ikki falsafiy-ma'rifiy tushuncha mujassam: *adolat soyaboni* (adolat chatri) va *adolat soyaboni soyasi*. Ogahiy tarixiy asarlarida *soya* alohida timsolga aylangani va bilan bog'liq qator birikmalar tizimi yuzaga kelganini kuzatishimiz mumkin:

*Qadr soyasi*: "Baland ul jihatdin falak poyasi, Ki tushmish qaddi *qadrining soyasi*". (8, 250<sup>a</sup>)

*Otifat va marhamat soyasi* – mehribonlik va marhamat soyasi: "*otifat va marhamatimiz soyasin* solib, zamona hodisotidin forig'bol va muraffihu-l-hol qilg'aymiz". (8, 359<sup>a</sup>)

*Soyayi davlat* – davlat soyasi: "Va ul havolida o'lturg'an el ul hazratning *soyayi davlatig'a* panoh eltib,..." (8, 271<sup>b</sup>); "fuqaro-yu raoyoni *soyayi davlatida* osudahol qildi". (8, 331<sup>b</sup>)

*Soyayi ma'dalati* – adolat soyasi: "alarning *soyayi ma'dalatida* ahli jahon forig'ulbol va marqatu-l-jalol bo'ldilar". (8, 251<sup>b</sup>)

*Soyayi otifat* – mehribonlik soyasi: "Holo ul hazratning kanafi himoyati *soyayi otifatida* huzuri tamom bila mazkur yurtda shodkom bo'lub o'lturubdurlar". (8, 343<sup>b</sup>)

*Soyayi ofiyat* – tinchlik, salomatlik soyasi: "*soyayi ofiyatlari* farog'atnishini erdilar,..." (8, 336<sup>b</sup>)

*Soyayi himoyat* – himoya soyasi: "*soyayi himoyatida* ahli olam jannat ahlidek barcha tashvishotdin beg'am bo'lub,..." (8, 305<sup>b</sup>)

*Tamkin soyasi* – ehtiram, hurmat soyasi: "Yondoqli mavze'ining farqig'a *tamkin soyasin* soldii" (8, 271<sup>a</sup>);

*Ehson va atoyo chatrining soyasi* – yaxshilik va karam soyaboni soyasi: "boshlarig'a *ehson va atoyo chatrining soyasin* solib,..." (8, 265<sup>a</sup>)

Boshqa falsafiy-ma'rifiy istilohlarda bo'lgani kabi mazkur tushunchani ham Ogahiy tarixiy asarlarining barcha o'rinlarida yuqoridagi kabi talqin qilish, albatta, to'g'ri emas. Masalan, quyidagi parchada *soyabon* va *soya* so'zlari urfiy (konnotativ) ma'noda ishlatilgan: "Kemalar uzra *soyabon* tikilib, Shoh-u mahramlar uza *soya* qilib,..." (8, 290<sup>a</sup>)

G'azal quyidagicha davom etadi:

Jahon sultonlarining jabhayi iqbolig'a tun-kun,  
Muallo ostoni tufrog'in masjud et, yo Rab.  
Murodi bo'lmag'on ishni jahonda aylabon ma'dum,  
Na ishnikim, bo'lsa komi, dahr aro mavjud qil, yo Rab.  
Kishikim, shu'ladek sarkashlik etsa hukmidin, ani,  
Hamisha tiyratole' bul sifatkim, dud qil, yo Rab.  
Zamona hodisotidin zarar mulkig'a yetkurmey,  
Umuri saltanat ichra nasibin sud qil, yo Rab.  
Berib islom eliga davlati bozusidin quvvat,  
Jahondin kufr eli osorini mavqud qil, yo Rab.  
Agar mulkiga qasd etsa, adadsiz lashkari a'do,  
Yeturmey maqsadig'a barchasin nobud qil, yo Rab.  
Safo-u sidq ahlin hurmatida aylabon maqbul,  
Nifoq-u kizb ahlin dargahidin mardud qil, yo Rab.

Qilib osuda olam ahlini ehsoni adlidin,  
Salotin ichra ani oqibat mahmud qil, yo Rab.

Duosin Ogahiyning mustajob et, lutf ila, ya'ni  
Ki shoh iltifotidin ani xushnud qil, yo Rab. [10, 42]

Ushbu g'azal misolida asl imloning lisoniy tadqiqdagi ahamiyatini birinchi misradayoq ko'rish mumkin: "Hazin ko'nglum hamisha vosili maqsud qil, yo Rab". Misrada "vosili maqsud" birikmasi *واصل مقصود* tarzida yozilgan bo'lib, ikki arabcha so'zning forsiy izofa orqali birikuvini anglatadi va "maqsadga yetishuvchi", degan mazmunni ifodalaydi. Umumiy qoidaga muvofiq, aniqlanmish undoshni ifodalovchi harf bilan tugayotgani uchun izofa ko'rsatkichi harf bilan (qo'lyozma nusxalarda aksar hollarda diakritik belgi bilan ham) ifodalanmaydi. [1, 76-77] Agar "vosili" so'zidagi "i"ni egalik qo'shimchasi deb tushunsak, mazmun ancha o'zgaradi, ya'ni ko'ngil maqsadga emas, maqsad ko'ngilga intiladi, degan mantiqsizlik kelib chiqadi. Yoki:

"Kishikim, shu'ladek, sarkashlik etsa hukmidin, ani,  
Hamisha tiyratole' bul sifatkim, dud qil, yo Rab"

baytidagi "tiyratole'" *تبيره طالع* so'zini arab imlosidagi ko'rinishi bo'yicha *tiyra tole'* tarzida berish, bizningcha, to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bu o'rinda ikki mustaqil so'zning birikuvigina umumiy lug'aviy ma'no bermoqda. Bunday so'zlar miqdori Ogahiy lirik merosida ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Arab imlosining muhim xususiyatlaridan biri unda bosh va kichik harflar farqlanmasligidir. Bu holat mumtoz adiblarimiz uchun tajnis, iyhom kabi san'atlardan unumli foydalanishi uchun bir qadar keng imkoniyat bergan. Xuddi shunga misolni quyidagi baytda ham ko'ramiz:

Qilib osuda olam ahlini ehsoni adlidin,  
Salotin ichra oni oqibat mahmud qil, yo Rab.

Mazkur misradagi mahmud *محمود* so'zini lug'aviy birlik sifatida tushunish mumkin. Maqtovoli ma'nosidagi ushbu so'zni "maqomi mahmud" birikmasiga bog'lab talqin qilish esa uning mazmunini yana-da chuqurlashtiradi. Baytdagi *salotin, ehson, adl* so'zlari mutanosibligidan uni *Mahmud* (Sulton Mahmud) tarzida talqin etib, misra badiiyatida tanosub mavjudligini ham aytish mumkin bo'ladi.

Aslida mumtoz adiblarimiz tili bo'yicha olib boriladigan har bir tadqiqotni matniy tadqiqdan ajralgan holda amalga oshirish mumkin emas yoki bunday holat ko'zlangan maqsadga etishda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Ma'lumki, Muhammad Rizo Ogahiyning lirik merosini faqat "Ta'viz ul-oshiqin" bilan cheklab bo'lmaydi. Ogahiyning tarixiy badiiy asarlarida ham so'z qadri, xususan "so'z durri" tushunchasi atrofida e'tiborli mulohazalar bayon qilingan. Mutaxassislar tomonidan "adabiy tarixiy asar" [4, 113], "tarixiy-badiiy proza" [2, 380], "badiiy tarixiy asar" [6, 16] sifatida baholangan. Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy jarayon qalamga olingan nasriy asarlari, haqiqatan ham o'zbek badiiy-tarixiy nasrning go'zal namunalari xisoblanadi. Bu xususida N.Jabborov [5, 3-26] N.Shodmonov [9, 3-24], tomonidan bildirilgan mulohazalar ham izchil mantiqiyli, Ogahiy qalamiga mansub shoh asarlarning umumiy xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda xulosalanganligi bilan e'tiborga molik.

Biz quyida Ogahiyning tarixiy badiiy asarlari kompozitsiyasiga oid ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Muhammad Rizo Ogahiy Alisher Navoiy dahosiga tom ma'noda izdoshligini ushbu asarlarida ham namoyon qila bilgan. Bu, birinchidan, asar boshlanmasining uning umumiy mazmuniga muvofiq tarzda badiiy ifodalashda ko'rinadi. Masalan, Alisher Navoiy "Man'tiqu-t-tayrni"ni uning ramziy timsollari va asosiy qahramonlari kabilarga ishora qilgan holda hamda ayni paytda ushbu asar nomini eslatib,

Jon qo'shi chun mantiqi roz aylagay,  
Tengri hamdi birla og'oz aylagay,

tarzida boshlaydi. [3, 7]

Ogahiy ham Navoiy kabi salafllari tomonidan shakllangan o'ziga hos ushbu an'anani har bir asarida loyiq bir tarzda davom ettiradi. Jumladan, o'zining birinchi mustaqil tarixiy-badiiy asari bo'lgan "Riyozu-d-davla"ni "Jahonbonlig' muhomining nigini intizomi va hukumronlig' nizomining sarishta-yi ixtiyorig'a muhkamu musallamdurkim, sipehri nilgunning ayvoni rif'atbunyoni oning bino-

## ADABIYOTSHUNOSLIK

yi san'atidir matrah va rub'i maskunning fuзо-yi vus'atnishoni oning me'mori qudratidin musattahdur" [8, 246<sup>b</sup>] deb boshlaydi.

**Xulosa.** Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan falsafiy-ma'rifiy istilohlar mazmuni kengroq ochish va chuqurroq tushinishda muarrix qalamiga "Ta'vizu-l-oshiqin" devoni tarkibidagi she'rlarning o'rni katta. Ogahiy tarixiy asarlarida ifodalangan tafakkur durdonalari, ilgari surilgan g'oyalarning katta ko'pchiligi uning lirikasida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun ular (tarixiy va lirik asarlar) yo'nalishi, maqsadi, yaratilish jarayoni va omillari kabi juda ko'plab jihatlardan farq qilsa ham, falsafiy-ma'rifiy g'oyalar ifodasi va falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasija ko'plab mushtarakliklarga egaligi boisi shunda deb hisoblashga asos bor.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdusamadov M. Fors tili. – Toshkent; "Sharq", 2007. (Abdusamadov M. Persian. - Tashkent; "Sharq")
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent.: O'qituvchi, 1967. (Abdullaev V. History of Uzbek literature. – Tashkent.: Teacher)
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 13-tom. –Toshkent.: Fan, 1996. (Alisher Navoi. A perfect collection of works. Twenty volumes. Volume 13 –Tashkent.: Fan)
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана.-Л.: 1927. (. Bartold V.V. Turkiston madaniy hayoti tarixi)
5. Jabborov N. O'zbek badiiy-tarixiy nasrining sara namunasi // Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix. –Toshkent.: O'zbekiston, 2009. (Джабборов Н. Лучший образец узбекской литературно-исторической прозы // Мухаммад Ризо Эрниеъзбек оглу Огахи. Зубдату-т-таворикс. - Ташкент.: Узбекистан)
6. Karimov G', Dalimov S. Ogahiy-tarixchi // Ogahiy. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. –Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. (. Каримов Г., Далимов С. Огахий-историк // Огахий. Работает. Шесть томов. Пятый том. - Ташкент.: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гулома)
7. Ogahiy. Ta'vizu-l-oshiqin. Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondi. №C1944. (Ogahiy. Tawizu-l-oshiqin. Manuscripts Fund of the St. Petersburg Branch of the Institute of Oriental Studies of the Russian Academy of Sciences)
8. Riyozu-d-davla. O'zRFA Sharqshunoslik instituti. Инв. № 5364. (Riyazu-d-davla. Institute of Oriental Studies of the Russian Academy of Sciences. Inv. № 5364)
9. Shodmonov N. Ogahiyning so'nggi nasriy asari // Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Shohid-u-iqbol. – Toshkent.: Muharrir, 2009. (Shodmonov N. The last prose work of Ogahi // Muhammad Rizo Erniyozbek o'glu Ogahi. Witness-u-iqbal. –Tashkent.: Editor)
10. Ganixojayev F. "Ta'viz-ul-oshiqin" devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni. Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. Toshkent, 1998, (Ganikhojayev F. "Tawiz-ul-oshiqin" office and its scientific-critical text. Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. Tashkent)

(Taqrizchi: A.Sabirdinov – Filologiya fanlari doktori)